

O‘ZBEK FAMILIYALARI IJTIMOYIY-TARIXIY HODISA SIFATIDA

Shodmonqulova Orasta Bobir qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada familiya terminiga izoh berildi. O‘zbek tilida familiya tushunchasi azaldan bo‘lganmi, u qachon xalqimiz hayotiga kirib kelgani to‘g‘risida fikr yuritildi. Qadimgi turkiy til davridagi bitiktoshlar, “Devoni lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Majolis un-nafois” kabi asarlar tarkibidagi antroponimlar tahlil qilindi. Familiyalarning hayotimizdagi ahamiyati nimadan iborat ekanligi izohlandi.*

Kalit so‘zlar: *familiya, izohlovchi, xoqon, tigin, nisba, ibn, nasab, laqab.*

O‘zbek tilidagi antroponomik birliklardan biri bu - familiyalardir. Familiya ism va ota ismidan ma‘lum tomoni bilan farqlanadi. Agar ismda biror yakka shaxs o‘zgalardan ajratilsa, familiya butun oilani, avlodni ana shunday boshqa oila va avloddan farqlaydi¹².

O‘zbek tilida tarixan familiya tushunchasi mavjud bo‘lmagan. U aynan rus tili orqali, uning ta’sirida, ya’ni yurtimizni Rossiya imperiyasi bosib olgan vaqtdan boshlab hayotimizda paydo bo‘lgan. Dastlab mahalliy boylar va ziyolilar orasida tarqalgan, inqilobdan so‘ng ommalashgan. Shaxslarni nomlashda ism, taxalluslar, laqablardan foydalanish qadimdan bizning tilimizda mavjud. Ya’ni biz rus istilosiga qadar bo‘lgan davrda shaxslarni bugungi kundagi izohlovchi-izohlanmish shaklida ifodalaganmiz. Izohlovchi bu shaxsni boshqa tomondan, masalan, kasbi, yashash joyi, unvoni, mansabi, jinsi, qarindoshliligi kabi tomonlarga qarab nomlovchi vositadir. Izohlovchini qo‘llashdan asosiy maqsad - ikki yoki undan ortiq bir xil ismli kishilarni farqlash, deyish mumkin. Buni qadimgi turkiy til davridan to Rossiya bosqiniga qadar yaratilgan asarlar isbotlaydi. Shuning uchun biz ushbu yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan barcha shaxs nomlarini birma-bir ko‘rib o‘tishga harakat qildik.

Tunyuquq bitigida bir qancha shaxs nomlari mavjud. Ularning barchasi ism yoki laqabni bildiradi, ammo familiya sifatida qo‘llangan antroponimlar uchramaydi.

“...unvon oladigani men edim - Bilga Tunyuquq” yoki “...Qo‘shin bilan boring, dedi. Oltin yishda o‘rnashing, dedi. Lashkarboshi Inol xoqon, Tardush shad borsin, dedi. ...Bugu xoqon menga shunday deb aytib yuboribdi. Bosh lashkarboshiga maxfiy gap yuboribdi: dono Tunyuquq hushyor, u o‘zi biladi...”¹³ Ushbu parchalarda Bilga Tunyuquq, Inol xoqon, Tardush shad, Bugu xoqon nomlari tarkibidagi xoqon, shad, bilga so‘zlari o‘sha davrdagi turkiy xonliklarda mavjud bo‘lgan harbiy yoki hukmdorlik unvonlarini bildirib turibdi.

¹² Begmatov E.O ‘zbek tii antroponimikasi.-Toshkent:Fan,2013.-87.B.

¹³Urxun bitiglari .To ‘nyuuq bitigi.20.B.



“...Eltarish xoqonga, Turk Bugu xoqonga, Turk Bilga xoqonga xizmat qildim, tun uxlamay, kunduz o'tirmay, qizil qonimni tugatib, qora terim yugurtirib, mehnatni, kuchni berdim, axir, men o'zim uzoqlarga bosqin uyushtirib turdim...” . Bu yerda ham hatto hukmdor nomlarida ham ajdodlari yoki otasining ismini qo'shib qo'llash uchramagan.

“Kultegin” bitigida mavjud antroponimlarni ham birma-bir ko'rib o'tamiz.

“...Kultiginga ziyoratgoh yarattirdim. Ichi-toshiga maxsus naqsh soldirdim. Tosh o'rnattirdim..... Yozuv bitidim. Uni ko'rib shunday deb biling: bu bitig bitilguvchining (ya'ni Kul tiginning) jiyani Yo'llug' tigidir” . Kul tigin Eltarish xoqonning kichik o'g'li, Yo'llug' tigin esa uning o'g'lidir. Hukmdor oilasiga taalluqli shaxslar ismidan so'ng takin, tegin, tigin kabi unvonlar qo'shib aytilishi o'sha davrda rasm bo'lgan. “Tigin” so'zi “shahzoda” degan ma'noni bildirgan. “...Inson bolalari ustidan ota-bobom Bo'min xoqon, Istami xoqon xoqon bo'lib o'tirganlar” yoki “...Ammo yuqorida turk osmoni, turning muqaddas yeri, suvi shunday debdi: “Turk xalqi yo'q bo'lmasin” deb, “xalq bo'lsin” deb, otam Eltarish xoqonni, onam Elbilga xotunni tangri o'z martabasida tutib, yuqori ko'targan ekan...”¹⁴ parchalarida ham hukmdor nomlariga xoqon so'zi, malika nomiga esa xotun so'zi qo'shib ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. Turk xoqonligida malikalar nomiga xotun, xvaton kabi so'zlar qo'shib aytilishi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan bo'lib, bitiktoshlar ham aynan 6-7-asrlarni o'zida aks ettiradi. Bunga yana bir misol: “Otam xoqon uchganda inim Kul tigin yeti yoshda qoldi, o'n yoshda Umayday Onam xotun baxtiga inim Kul tigin er degan nom topdi” . “Kul tigin yayov otilib chiqdi. O'ng Tutuq yo'l boshchisining yaroqli qo'lini tutdi. Yigirma bir yoshida Chacha Sangunga urush qildik. Eng avval Tadqan Churning bo'z otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Ikkinchi bor Ishbara Yamtarning bo'z otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Uchinchi bor Yegan Silig bekning to'riq otini minib, hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi” . Kultegin jangga mingan otining kimga qarashli ekanligini aytib o'tilgan ushbu jumalalarda keltirilgan shaxs nomlari - Tadqan Chur, Ishbara Yamtar, Yegan Silig beklar ikki qismli antroponimlarning ko'rinishlaridir.

“Undan keyin Er Bayirquli Ulug' Erkin dushman bo'ldi. Uni parokanda qilib, Turg'i yarg'un ko'lda tor-mor qildik...” yoki “Alp er bizga hujum qilgan edi. O'shanday zamonda xafa bo'lib Kul tiginni ozgina er bilan izlatib yubordik. Katta jang qilibdi. Alp Shalchining oq otini minib, hujum qilibdi...” jumlalarida shaxs nomlari oldidan Alp yoki Er so'zlari qo'llanganini ko'rish mumkin.

Yo'llug' tigin otasi Bilga xoqon nomiga ham bitik yozgan. “Qug' Sangun boshchiligida to'rt tuman Lashkar keldi. Tunkar tog'da hujum qilib, zarba berdim. Uch tuman lashkarni o'ldirdim..... To'ng'ich yili beshinchi oyning yigirma yettisida dafn marosimi o'tkazdim. Menga Lisun Tay sangun boshchiligida besh yuz odam

¹⁴ Urxun bitiglari. Kul tigin bitigi. 25.B.



keldi...”¹⁵ “Bilga xoqon” bitigidan olingan yuqoridagi parchada tabg’ach xalqiga mansub nomlar qatnashgan.

VII-VIII asrlar davomida, ya’ni O’rta Osiyoda arablar bosqini yuz bergan davrda turkiy xalqlar, aynan bizning turkiy tilimizda shaxslar nomlanishi arab tili qoidalariga moslashtirildi. Islom dini keng tarqalgach arabiy nomlar ham ommalashdi. Diniy va Qur’onga oid (Muhammad, Ahmad, Abdulloh , Ibrohim, Muso, Ismoil), “Abd”qo’shimchali ismlar (Abdulloh, Abdurahmon, Abdulaziz), mashhur sahobalar va xalifalar ismlari (Umar, Ali, Usmon, Husayn, Hasan, Zayd) kishilar tomonidan tanlandi. Bu davrda turkiy yoki eroniy ismlar arabcha nomlar bilan qo’shib, yangi shaklni hosil qilgan: Muhammad To’g’rul, Ahmadxon, Ismoilbek, Rustam ibn Ibrohim. Bundan tashqari, kunyalar va laqablar ham keng tarqalgan edi. Kunya - bu “abu” yoki “umm” bilan boshlanuvchi nomlar: Abu Ja’far, Abu Muslim, Abu Xafs kabi. Laqablar esa shaxsning tug’ilgan joyini yoki yashaydigan hududini bildiruvchi so’zlar bilan ifodalangan: Al-Farg’oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy.

Shu o’rinda arabiy ota ismlarni ham aytib o’tish joiz. Arabcha an’anaga ko’ra, ismlar “ibn” (o’g’li) yoki “bint” (qizi) qo’shimchalari bilan ifodalangan: Muhammad ibn Ismoil - Ismoilning o’g’li Muhammad, Ahmad ibn Fadlon - Fadlonning o’g’li Ahmad, Zaynab bint Abdulloh - Abdullohning qizi Zaynab. O’rta Osiyo xalqlari bu usulni qabul qildi va mahalliy ismlarga tatbiq etdi: Rustam ibn Ibrohim, To’g’rul ibn Hasan, Ahmad ibn Ali.

Ba’zan nasab uch avlodgacha davom etgan: Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarhan (Farobiy).

Shaxslarni farzandlari nomi bilan chaqirish ham urfga kirgan edi. Bu kunya deb atalgan: Abu Muslim (Muslimning otasi), Abu Bakr (Bakrning otasi), Ummu Gulsum (Gulsumning onasi) kabi. Kunyalar hurmat yoki faxrlanish maqsadida qo’llangan.

Kishining qayerdan ekanligini yoki qaysi qabila, kasb yoki e’tiqodga mansubligini ifodalash uchun nisba ishlatilgan: al-Buxoriy, at-Termiziy, as-Samarqandiy.

Ba’zan kasb yoki e’tiqodni bildiruvchi nisbalar ham ishlatilgan: an-Naqqosh (hunar egalari), al-Hanafi (Hanafiy mazhabiga mansub) kabi.

Bu davrda ko’plab olimlar va hukmdorlar maxsus faxriy laqablar orqali ham nomlangan: al-Farg’oniy, Sulton Muhammad Ga’aznaviy, Imom al-Buxoriy.

Turkiy tilda yozilgan ilk qomusiy asar hisoblanuvchi Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’otit-turk” asarida ham bir qancha shaxs nomlari mavjud bo’lib, ular, asosan, ismlar, laqablarni ifodalaydi. Bu asar bizga turkiy tillarning grammatika, fonetika va semantikasi hamda turli sheva ko’rinishlari haqida ma’lumot beradi.

Mahmud Qoshg’ariyning to’liq ismi Abu-l-Qosim Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg’ariy bo’lib, uning ismi Mahmud, nisbasi esa Qoshg’arda

¹⁵Urxun bitig'lari.Bilga xoqon bitigi.33.B.



tug'ilgani uchun Qoshg'ariydir. Bundan ko'rinadiki, XI asr davomida ham turkiylarda nomlanish tizimi amal qilgan. Bu asar Abbosiylar xalifasi Al-Muqtadiyga bag'ishlangan.

Endi asardagi shaxs nomlarini birma-bir ko'rib o'tamiz. "Bevafolik qilgan odam haqida aytadi: unga, Qulbaqqa yaqinlik ko'rsatma, uning atrofida o'ralishma, tagi yo'q suvga havaslanma, u mening qay qabilasidan keltirilgan qulimni olib qochdi"¹⁶.

"...Chunki Qazning otasi Tonga Alp er - Afrosiyobdir. U Taxmuraspdan 300 yil keyin Marvni bunyod qilgan".

"...Bu yerda Afrosiyobning qizi - Qazning eri Siyavush o'ldirilgandir. Majusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, Siyavush o'lgan joy atrofida yig'iladilar".

"Turumtay-yirtqich qushlardan birining nomi. Odam ham Turumtay deb ataladi. Shunday laqab beriladi (Turumtoy nomli qulimni olib qochdi)".

"Junu-Barman shaharchasiga oqadigan kata bir daryo nomi. Bu daryo bo'yiga Afrosiyobning Barman degan o'g'li shahar qurgan edi. Shahar ham unga nisbat berilib, uning nomi bilan ataladi".

"Barsg'an - Afrosiyob o'g'lining nomi. Barsg'an shaharini bino qilgan shudir. Mahmudning otasi shu shahardandir".

"Burslan - erkak nomlaridan. Burslon so'ziga arslonning ergashma so'zi deb qarash ham mumkin".

"Sovalik, so'ng damashqlik ulug' tangrining yo'qsil quli Muhammad binni Abu Bakr ibni Abulfathni, xudo uni kechirsin, bu kitobni Mahmud Qoshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirib yozish ishini 664-yil, shaval oyining 27-sida, yakshanba kuni tamomladi".

Turkiy tildagi ilk doston muallifi Yusuf Xos Hojib ham XI asrda yashab ijod qilgan edi. U o'zining "Qutadg'u bilig" asarini yozib, Qoraxoniylar davlati hukmdori Tavg'ach Bug'roxon (Tamg'ach Uluq Qutbiddin Hasan) ga bag'ishlagan edi. Buning evaziga xoqon unga Xos Hojib (hukmdorning eng yaqin maslahatchisi) unvonini beradi. Muallifning to'liq ismi Yusuf ibn Ali Xos Hojibdir. Bu yerda Yusuf uning ismi, Ali otasining ismi, Xos Hojib esa unvonidir. "Qutadg'u bilig" asarida ham bir qancha antroponimik birliklar mavjud bo'lib, ularni ko'rib o'tish o'rinlidir.

"Bug'raxon vaqtida yozildi ayon,

Yana xon tilicha etilgan bayon.

Bu yanglig' kitobni kim aytgan azal,

Keyin ham kim aytar bu qadar go'zal?"¹⁷

"Bu turk beklarining yetuk, sarasi Alp Er To'nga edi - yoyilgan sasi. Alp Er To'nganing bilimi ulug', hunari talay edi. Uning

¹⁶ M.Qoshg'ariy.Turkiy so 'zlar devoni.O 'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti.Toshkent-1963.

¹⁷ Yusuf Xos Hojib.Qutadg 'u bilig.Toshkent-2007.



tengi topilmasdi. Tojiklar uni Afrosiyob deb atashgan” .

“Kuntug‘di ismli elig bo‘lib, u dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan edi. Uning himmati va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi” .

“Oyto‘ldi Kusamish ismli yigit bilan do‘stlashib, poytaxtga kelishdan maqsadini bayon etadi. Kusamish eligning Ersig degan Xos Hojibi bilan uchrashadi va unga Oyto‘ldini tanishtiradi. Ersig Oyto‘ldining qayerdan kelgani, qanday joylashgani, sog‘lik-salomatligini surishtirgach, uning maqsadlari bilan qiziqadi”. “Shu chog‘ uning xayoliga yana donishmand Oyto‘ldining o‘g‘li O‘gdulmish keladi: ota o‘lgan bo‘lsa, uning tirik o‘g‘li bor-ku” .

“Fe‘l-atvori to‘g‘ri, oti - O‘zg‘urmish,
Faqat ezgulikdir qo‘li yetgan ish”.

XVI asrgacha bo‘lgan davrda mavjud tarixiy shaxslar, davlat va din arboblari haqidagi to‘liq ma‘lumotlarni Alisher Navoiy va Bobur asarlaridan topishimiz mumkin. Navoiyning tarixiy, tasavvufiy, tazkira va bag‘ishlov asarlarida ko‘plab shaxs nomlari qatnashgan. “Majoli un-nafois” asarida 7 ta majlis bo‘lib, ularning har biri alohida guruhga oid kishilar haqidadir. Dastlabki majlisda ulug‘ zotlar haqida gap ketadi, ya‘ni o‘zidan avval yashab ijod qilgan azizlarini eslaydi.

“Mavlono Kotibiy - o‘z zamonining benaziri edi. Har nav she‘rg‘aki, mayl ko‘rguzdi anga maoniyi g‘ariba ko‘p yuzlandi, bataxis, qasoidda balki ixtirolar ham qildi va ko‘p yaxshi keldi”¹⁸.

“Xoja Ismatullo - Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir ilmin takmil qilg‘ondur. G‘oyat xushta‘blig‘idin o‘zin she‘rg‘a mansub qilib devoni mashhur bo‘ldi”.

“Mavlono Bisoti - Samarqanddindur. Sho‘x ta‘bi bor emish, ammo bag‘oyat omiy ermish”.

“Sayid Ali Hoshimiy – Sayid Hoshimiy nasab va xushta‘b yigit erdi. Abdullatif Mirzo mulozamatida bo‘lur erdi. Va sipohiylik ham qilur erdi” .

“Mavlono Qudsiy - hiriylkdir, shiringo‘y kishi ermish. Va og‘zida laqva marazi bor erdi, andokkim og‘zidin suv borur erdi va zabt qila olmas erdi”. Ikkinchi majlisda shoir bolalik va yigitlik davrida suhbat qila olgan aziz zotlar haqida fikr yuritadi.

“Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy - Mavlononing sohibkamollig‘i olam ahli qoshida musallamdur. Va mavlono himmat va bazl bobida ta‘rifdin mustag‘niy erdilar”¹⁹ .

“Mavlono Uloi Shoshiy - donishmand kishi erdi. Xush tab‘liqq‘a barcha xaloyiq ani musallam tutar erdilar. Va Mavlono hamul za‘d bila olamdin o‘tdi va qabri Samarqandda-o‘qdur”.

¹⁸ A.Navoiy.Majolis un-nafois.www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹⁹ A.Navoiy.Majolis un-nafois.www.ziyouz.com kutubxonasi.



“Xoja Fazlulloh Abullaysiy - Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi”.

“Shayx Sadriddin Ravosiy - ul dag'i Shayx Zayniddin xo'lafosidindur. Shayx zebo va ra'no erdi. Zamon podshohi ham shayx mulozamatig'a yetar erdi, o'zga xaloyiqg'a xud ne etgay”.

“Mir Muflisiy - Mashhad sodotidindur. Tab'i xub erdikim, anga jazaba yetishtikim, aqli zoyil bo'ldi. Ilkiga va barmoqlariga xalqalar solur erdi”.

Uchinchi majlisda esa Navoiy bilan zamondosh ijodkorlar haqida gap ketadi.

“Mavlono Osafig - otasi podshohi zamonning vazorat devonida muhr bosibdur va o'zining tab'i ta'rif qilg'ucha bor va hofizasi ham bag'oyat xubdur”.

“Mavlono Hasanshoh - Xurosonning qadimiy shuarosidindur. Shohruh Mirzo zamonidin bu farxunda davrong'acha ko'prak salotin va akobir va muttayyin elga ham madhi va ham marsiyasi bor”.

“Mavlono Darvesh Mashhadiy - safih va badzabon kishidur. Ba'zi azizlarni, derlarki, yomon hajvlar qilibdur”.

“Mavlono Nargis - hiriydindur. Mazkur bo'lg'on taxallus bila nazm aytur erdi”.

“Mir Hoj-sayid kishidur, tolibi ilmlik ham qilur. Yaxshi tab'i bor”.

“Pahlavon Kotib - ham ul Hazratning ash'or va musannafotin kitobat qilur”.

Asarning to'rtinchi majlisida muallif davrning ziyoli, donishmand qatlami haqida to'xtalgan.

“Pahlavon Muhammad Go'shtigirkim, ko'b fazoyil bila orostadurkim, go'shti fani bavujudi ulkim, aning andoq haq va mulkidurkim, ma'lum emaskim, hargiz bu fanda andoq paydo bo'lmish bo'lg'ay”.

“Mavlono Burhoniddin - Hiri shahrining buzurgzodalaridindur, donishmand va xushtab' va sabukruh kishidur”.

“Mir G'iyosiddin Aziz - Mashhadda Imom Ali Muso ar-Rizo ravzalarida naqib va viloyatning ulug'idur. Ta'riflarida bayon qosirdur”.

“Mir Murtoz - kichik yoshdin berikim, ilm kasbig'a mashg'uldur. Anga tegrukim ko'prak ulumda donishmand bo'ldi - o'z mutolaasi bila bo'ldi”.

Beshinchi majlisda esa Xuroson va boshqa hududlardagi mirzodalar va beklar haqida gap boradi.

“Amir Davlatshoh - Feruzshohbekning amakizodasi Amir Alouddavla Isfaroyiniyning o'g'lidur. Amir Davlatshoh xushtab' va darveshvas va ko'p salohiyatli yigitdur”.

“Mir Husayn Ali Jaloyir - “Tufayliy” taxallus qilur erdi. Ali Jaloyirning o'g'lidur”.

“Mir Haydar - “Sabuhiy” taxallus qilur. Ota otadin bu dargohning boyrisi, balki tug'masidur. Bu faqirg'a shiddati qarobatdin farzandlig' nisbati bor”.

“Sulton Husayn-“Xatmiy” taxallus qilur. Shayx Bahlulbekning o'g'lidur”.



“Mir Ibrohim - Sulton Husaynning o‘g‘lidur va faqirning og‘asining nabirasidur”. Yuqoridagi parchalarda mavjud shaxs nomlarida ism bilan birgalikda taxallus, laqab, kasb, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash hududi yoki otasining ismi qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, Navoiy davrida va undan oldingi davrlarda bugungi hayotimizdagi familiya ko‘rinishlari bo‘lmagan. Shaxslarni nomlashda ularning oilaviy nomi, urug‘ nomi qo‘llanmasdan izohlovchi shaklidagi so‘zlardan foydalanilgan. Familiyalarning bizning hayotimizda ahamiyati shundan iboratki, u sulolalar ko‘rsatkichi hisoblanadi hamda har xil merosiy mulklarni rasmiylashtirishni osonlashtiradi. Shunday ekan, ruscha qo‘shimchalar orqali shakllantirilayotgan familiyalar o‘rniga turkiy tillarga, ayniqsa, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan shakllar orqali hosil bo‘luvchi familiyalar tizimini ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatov E. O‘zbek tii antroponimikasi. - Toshkent:Fan,2013. -87. B.
2. Urxun bitiglari . To‘nyuuq bitigi. 20.B.
3. Urxun bitiglari. Kul tigin bitigi. 25.B.
4. Urxun bitiglari. Bilga xoqon bitigi. 33.B.
- 5.M. Qoshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, Toshkent-1963.
- 6.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2007.
7. A. Navoiy. Majolis un-nafois . www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. A. Navoiy. Majolis un-nafois. www.ziyouz.com kutubxonasi.

